

**LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA DARS  
MASHG'ULOTLARINING SIFATINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY  
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARALARI**

*Maxmudov Zafar Mardanovich*

*Samarqand Davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrası assistenti*

*Akramov Abdulaziz*

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ta'lim sohasida pedagogik va axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan, internet axborot ta'lim resurslaridan foydalanish studentlarning olayotgan bilimlarini yuqori saviyada bo'lishida samarali yordam beradi va ularning kelgusida malakali mutaxassislar bo'lib chiqishiga imkoniyat yaratadi. Ushbu maqolada shu kabi fikrlar haqda so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** *Zamonaviy axborot texnologiyalari, axborot, mustaqil ta'lim, texnologiya, pedagogik texnologiyalar, til o'qitish, lotin tili, tibbiy termin.*

**Аннотация:** *Использование педагогических и информационно – коммуникационных технологий, интернет -информационных образовательных ресурсов в сфере образования эффективно помогает студентам получить знания на высоком уровне и дает им возможность в будущем стать квалифицированными специалистами. В этой статье рассматриваются похожие моменты.*

**Ключевые слова:** *современные информационные технологии, информация, независимое образование, технология, педагогические технологии, языковое обучение, латынь, медицинский термин.*

**Annotation:** *The use of pedagogical information and communication technologies, internet Information educational resources in the field of Education will effectively help students to keep their knowledge at a high level and provide an opportunity for them to turn out to be qualified specialists in the future. This article will talk about similar thoughts.*

**Keywords:** *modern Information Technology, Information, Independent Education, Technology, pedagogical technology, language teaching, Latin, medical term.*

## **KIRISH**

Bugungi kunda faqatgina ma'ruzaga asoslangan an'anaviy darslar vaqti o'tdi. Axborot oqimi sur'ati tezlashgan bir paytda o'tilayotgan har bir dars rang-barang bo'lmasa, studentlar e'tiborini bilimga jalb etish mushkul holga aylanmoqda. Buning uchun o'qituvchi tinmay izlanishi, ijodkor bo'lishi kerak. Bunday holda, ayniqsa darsni

o‘yinlar asosida vizual tizimga asoslanib o‘tish sezilarli samara beradi. O‘yinlar esa student psixologiyasidan kelib chiqib, tanlangani ma’qul. Birinchi bo‘lishga undash uslubi doimo o‘zini oqlaydi. Chunki bolalar hamisha o‘zini ko‘rsatgisi, tengdoshlaridan bir qadam oldinda yurgisi keladi. Oliy ta’lim talabasi ham hali bolalikdan voz kechmaganligini ta’kidlab qo‘yish foydadan holi emas.

Darslarda ham yangi ma’lumotlarni yetkazishdan avval o‘qituvchi ularning dastlab olgan bilimlarini, tasavvurlarini aniqlashtiradi, bir tizimga soladi, olingan bilimlar har xil ko‘rgazmali vositalar, slaydlar, multimediya, tarqatma materiallar, qo‘shimcha adabiyotlar bilan mustahkamlansa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Darsda olib boriladigan ta’lim - tarbiya ishlarining asosiy elementlaridan biri, studentlarning o‘zaro faollik asosida mustaqil, erkin fikrlash, o‘quv va amaliy topshiriqlarni bajarishlari, hayotda albatta yetuklikka yetaklaydi. Darslarda foydalaniladigan har qanday interfaol usullar ta’lim xarakteriga ega bo‘lib, studentlar bilimining mustahkamlanishiga, aniqlashtirilishi va kengayishiga, ularni umumlashirishga va ygona tizimga solishga yordam beradi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Mazkur maqola ustida ishlash jarayonida ilmiy bilishning mantiqiylik, izchillik, tarixiylik hamda obyektivlik usullaridan keng foydalanishga urundik. Kasbiy terminologik lug‘at boyligini o‘rgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli obyektiv va subyektiv ochib berildi. Pedagogik texnologiyalarning rivojlanish davri tarix nuqatayi-nazaridan tahlil etildi. N.I. Taylaqovning “Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari” nomli o‘quv qo‘llanmasi metodologik manba qilib olindi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Ta’lim sifatini oshirishda amalga oshirilayotgan ishlar haqida gap ketganda, ta’lim berish jarayonini ezgulik ko‘prigiga o‘xshatamiz, bu ko‘prikdan studentlarimizni bilimli, dunyoqarashi keng qilib olib o‘tish ustozning, ya’ni o‘qituvchilarning vazifasi deb bilamiz. Darslarning amaliy qismida studentlarning qiziqishini oshirish uchun pedagogik texnologiyaning samarali usullaridan foydalanib, kichik guruhlariga bo‘lingan holda olib boriladi. Mashg‘ulotlarni olib borish jarayonini kuzatib borish va kerakli maslahatlar berish kichik guruhlarda darslarni samarali o‘tilishiga yordam beradi. O‘z kasbining ustasi bo‘lgan shifokorlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, ular haqida studentlarga so‘zlab beriladi, savollarga hayotiy misollar keltirish bilan javob beriladi. Buning uchun faqat o‘qish, o‘rganish kerakligi haqida maslahat beradi. Bunday malakali mutaxassislar bilan uchrashuvlar, baxs- munozaralar tashkil etish ham studentlarni fanga bo‘lgan qiziqishlarini orttiradi. Ota-onalarda farzandini yuksak ma’naviyatli, bilimli, komil inson etib voyaga yetkazish istagini yanada kuchaytirish zarur.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari o'qitishning yangi shakl va metodlarini ishlab chiqish uchun keng imkoniyat yaratilmoqda. Shu bilan birga, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini chuqur o'rgatish, studentlarni katta hajmdagi ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash va mustaqil ishlash muammosi yuzaga kelmoqda. Maktabdan tibbiyot universitetiga o'qishga kelgan ko'p studentlar mustaqil fikrlash va ishlash bo'yicha yetarlicha ko'nikmaga ega emas. Qobiliyatli, izlanuvchan hamda ijodkorlikka ishtiyoqi bor farzandlarimizni o'zi qiziqqan sohaning terminlari bilan chuqurlashtirilgan saboq olishi, ularni kelajakda albatta yuksak malakali mutaxassislar bo'lib yetishshishlarida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, Respublikamizning barcha ta'lim muassasalari o'quv jarayonida o'qitishning zamonaviy shakllari va usullarini qo'llash, ta'lim tizimida axborot texnologiyalardan unumli foydalanish, ular yordamida ta'lim tizimini talab darajasiga yetkazish ustida bir qancha ishlar olib borilmoqda.

Lotin tili fani o'qitish jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning quydagi imkoniyatlarini keltirish mumkin:

✓ O'qituvchiga o'quv materiallarini ta'lim oluvchilarga etkazib berishda birmuncha yengillashtirilishi;

✓ Dars jarayonida berilayotgan o'quv materiallarning takroriy holda namoyish qilish imkoniyatining mavjudligi;

✓ Ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining yuqori bo'lishiga erishish;

✓ Amaliy mashg'ulotlarni video, audio va animatsiyali vositalar orqali qiziqarli tashkil qilish imkoniyati;

✓ Tavsiya qilingan o'quv materiallaridan ommaviy tarzda foydalanish, ya'ni tarmoq texnologiyalari yordamida bir yoki bir nechta auditoriyada va guruhlarda foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

✓ O'quv materiallari ma'lumotlar bazasini tezkor ravishda o'zgartirib, yangi axborot zaxiralarini kiritish imkoniyatining mavjudligi;

✓ Amaliy mashg'ulotlar mobaynida ma'ruza materiallariga o'tish imkoniyatining yaratilishi;

✓ Masofadan o'qitish uchun asosiy vositalardan biri sifatida foydalanish imkoniyati;

✓ Ta'lim oluvchilarning individual bilimlarini baholash, nazorat qilish va boshqalar.

Bunday imkoniyatlarga ega bo'lgan o'quv materiallarini o'quv jarayoniga tadbiq etish, bir vaqtning o'zida ta'lim oluvchilarga o'quv materiallarini ko'rish, o'qish, eshitish, mulohaza qilish va qayta-qayta takrorlab o'z bilimlarini oshirish imkoniyatlarini yaratadi. Axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llanilishi, ayniqsa multimedial vositalardan foydalanish o'quv jarayoninig didaktiv ko'rinishda tasvirlash uchun juda katta imkoniyatlar yaratadi.

O‘quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishda elektron darsliklarning alohida o‘rni mavjud. Elektron darslik - kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o‘quv uslubini qo‘llashga, mustaqil ta‘lim olishga hamda fanga oid o‘quv materiallar, ilmiy ma‘lumotlarning har tomonlama samarador o‘zlashtirilishiga mo‘ljallangan elektron o‘quv adabiyoti hisoblanadi.

Ta‘lim tizimida o‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilsa ta‘lim-tarbiya jarayoni jadallashadi. Ta‘lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo‘naltirilganlik;
- studentlarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta‘lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- studentlarning o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- studentlarning o‘quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

O‘quv jarayonida mustaqil ta‘lim mashg‘ulotlarini samarali tashkil qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining ahamiyati juda katta hisoblanadi. Kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o‘quv- uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta‘lim uslubini shakllantirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo‘llash orqali ta‘lim jarayonining samaradorligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta‘lim tizimida zamonaviy o‘quv manbalari elektron o‘quv darsliklarini keng qo‘llash, ularning ma‘lum ma‘noda kutubxonalarini tashkil etish, ta‘limning masofadan o‘qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o‘quv tizimiga kirishdan iborat.

O‘quv materiallarini elektron ko‘rinishda taqdim etganda uning studentlar tomonidan tushunish darajasiga alohida e‘tibor berish kerak. Elektron shaklda taqdim etilayotgan materiallar talim oluvchilar uchun qulay va yaxshi o‘zlashtira oladigan bo‘lishi kerak. Tavsiya etilayotgan o‘quv materiallarida kerakli ta‘riflar, tayanch iboralar, kalit so‘zlarga murojaat qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan amaliy ishlarini virtual stendlar ko‘rinishida imitatsiya qilish orqali tashkil qilish masofali o‘qitish tizimida quyidagi imkoniyatlarni ta‘minlaydi:

- virtual stendlar uchun maxsus jihozlangan xonalar talab qilinmasligi;
- yaratilgan virtual stendlardan ko‘p marotaba foydalanish.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan amaliy va mustaqil ishlarni virtual stend tarzida tashkil qilish masofali va mustaqil o‘qitish tizimida juda katta ahamiyatga ega. Masofali va mustaqil o‘qitish tizimini tashkil qilish natijasida ko‘rgazmali o‘quv materiallaridan uzoq mintaqalardagi ta‘lim muassasalarida o‘quv jarayoni uchun

kerakli o‘quv jihozlari yetarli bo‘lmagan holda ham ta’lim oluvchilar amaliy ishlarini bajarish imkoniyati yaratiladi.

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanidan elektron o‘quv materiallarini yaratish, ulardan qulay va samarali foydalanish uchun elektron o‘quv materiallari pdf va html formatiga o‘tkaziladi. Bu formatda tayyorlangan materiallardan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- ma’lumotlar xotiradan kam joy egallaydi;
- ma’lumotlar himoyalangan bo‘ladi (o‘zgartirishlar, viruslar ta’siridan holi qilish va boshqalar);
- ma’lumotlarni qidirish va chop etishni tezlashtirish;
- ma’lumotlarni ifodalovchi yuqori sifatli shriftlarning mavjudligi;
- ixcham tasvirli ma’lumotlarni yaratish;
- ma’lumotlarning zarur sahifalariga tez o‘tishni ta’minlash va boshqalar.

Bu kabi ko‘rsatkichlar masofali o‘qitish jarayonida foydalaniladigan o‘quv materiallarining asosiy talablarini tashkil qiladi.

#### **XULOSA:**

Lotin tili va tibbiy terminologiya fanining o‘quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o‘quv jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish;
- ta’lim olishning yangi shakllarini joriy qilish;
- dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkoniyati;
- olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo‘llash mumkinligi.
- studentlarda ma’lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
- mashg‘ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
- kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida student ta’lim sub’ektiga aylanishi;
- studentlar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo‘lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo‘lishi va boshqalar.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Taylaqov N.I. Ta’lim tizimida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning istiqbollari // Ta’lim va tarbiya -T 2002
2. Nasimova, S. Y. (2024, August). ANTROPONIM SARLAVHALAR. In *Conference on Applied and Practical Sciences* (pp. 149-151). Open Journal Systems.

3. Yaxyayevna, N. S. . (2024). Public Health Communication Enhancing Knowledge and Empowering Communities. *International Journal of Formal Education*, 3(4), 287–290.
4. Bakhodirovna, E. M. (2024). STRUCTURAL AND FUNCTIONAL FEATURES OF PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE TEXTS OF WORKS OF ART (ENGLISH AND UZBEK AUTHORS). *Eurasian Journal of Academic Research*, 4(2-1), 111-117.
5. Aitmuratova, P., Yorova, S., & Esanova, M. (2023). The role of foreign languages in our life. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(4), 161-164.
6. Yorova, S., & Hasanova, F. (2024). TIBBIY DISKURSGA XOS BO ‘LGAN KASBIY VA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA. *Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления*, 1(8), 68-71.
7. Karimovna, Y. S. (2024). Medical Staff Professional Communication Process. *Gospodarka i Innovatsje.*, 44, 227-230.
8. Zikiryaevna, S. A. (2022). DISCURSIVE ANALYSIS OF DERIVED METONYMIE. *Journal of Positive School Psychology*, 1588-1592.
9. Shodikulova, A. Z. (2021). Methodology For Using Computer Training Programs In English Lessons. *Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT)*, 12(13), 3358-3367.
10. Baxtiyarovna, B. D., Xolmurodovna, M. S., Nabiyevna, H. K., Maxammadovna, K. N., & Abdumannopovna, R. X. (2019). Modern methods in learning English. *International scientific review*, (1 (41)), 32-35.
11. Xolmurodovna, M. S. (2024). SYNTACTIC ANALYSIS AND THEIR TYPES IN ENGLISH LINGUISTICS. *JOURNAL OF INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH*, 1(2), 163-166.
12. Айтмуратова, П. Г. (2022). Важность обучения латинскому языку в медицинских вузах. *Science and Education*, 3(12), 897-902.
13. Айтмуратова, П. Г. (2024). I-III СКЛОНЕНИЯ ИМЁН СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ В ЛАТИНСКОМ ЯЗЫКЕ. *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi*, 22(5), 37-42.
14. Mallaevna, N. S., & Khalid, A. (2023, November). Topic chemical terminology of salts. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 5, pp. 226-229).
15. Mallaevna, N. S. (2024). THE SOCIAL AND CULTURAL IMPORTANCE OF THE LATIN LANGUAGE AND ITS PRESENT AND HISTORICAL LANDSCAPE. *Central Asian Journal of Academic Research*, 2(5), 51-55.

16. Alisherovna, A. U. (2023). Discourse in modern linguistics. *Journal of new century innovations*, 26(5), 123-128.
17. Alisherovna, A. U., & Uves, S. (2023, November). CLINICAL TERMINOLOGY: UNDERSTANDING WORD-FORMATION, GREEK ROOTS, SUFFIXES, AND PREFIXES. In *International conference on multidisciplinary science* (Vol. 1, No. 5, pp. 206-209).
18. Mardanovich, M. Z., & Mokhigul, O. (2024). Personality in teaching the module of latin and medical terminology in the medical higher education institution. *Journal of Universal Science Research*, 2(1), 425-435.
19. Mardanovich, M. Z. (2023). Lotin tilining zamonaviy tillarga bevosita va bilvosita ta'siri. *Research Focus International Scientific Journal*, 2(6), 132-136.
20. Фомина, М. А., & Бекназарова, М. К. (2021, January). МЕДИЦИНСКИЕ ТЕКСТЫ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *The 5th International scientific and practical conference "World science: problems, prospects and innovations" (January 27-29, 2021)* Perfect Publishing, Toronto, Canada. 2021. 1300 p. (p. 1158).
21. Qurbonova, Z., & Maxmudov, Z. (2023). LOTIN TILIDA KLINIK TERMINLARNING TO'G'RI QO'LLANISH YUZASIDAN FIKRLAR. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(3 Part 3), 23–27. Извлечено от <https://www.in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/11503>
22. Aminovna, Y. D., Ubaydullayevich, F. F., & Tog'aymurodovich, R. J. (2020). The development of speech activity in students. *International Journal on Integrated Education*, 2(4), 95-97.
23. Fayzullaev, F. U. "The Role of Critical Thinking in Learning a Foreign Language." *JournalNX*, vol. 7, no. 1, 2021, pp. 68-70.
24. Hamdamova Muqaddas Xamidovna. (2024). FRANSUZ TILIDA MURAKKAB NISBIY OLMOSHLARNING ISHLATISH METODIKASI. *Miasto Przyszłości*, 53, 451–452. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/4859>
25. Hamdamova Muqaddas Xamidovna. (2024). Le Developpement De Tourisme Entre La France Et L'ouzbekistan. <https://doi.org/10.5281/zenodo.14001984>
26. Zafar, M., & Sohiba, N. (2023). Kundalik turmushda keng qo'llanilishda bo'lgan suyuqliklarni ifodalovchi dori shakllari haqida chet el ilmiy nashrlaridan olingan fikrlar.
27. Makhmudov, Z., Tuychiyev, K., & Usmanov, S. (2023). SOME OF THE MOST USED FORMS OF MEDICINE IN MEDICAL PRACTICE-THE USE OF TABLETS AND SOLUTIONS. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences*, 2(13), 20-26.

28. Mardanovich, M. Z. (2023). Effective use of innovative educational technologies in teaching practical classes of the subject” latin language and medical terminology. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(3), 369-375.
29. Mardanovich, M. Z. (2024). DORIVOR VOSITALARI NOMENKLATURASINING TIPIK GURUHLARI VA ULARNING AHAMIYATI. *SCIENTIFIC JOURNAL OF APPLIED AND MEDICAL SCIENCES*, 3(5), 480-487.
30. Omonova, M., & Makhmudov, Z. (2023). Modern signs of using the quince plant in folk medicine. *International Bulletin of Medical Sciences and Clinical Research*, 3(4), 41-45.
31. Zafar Maxmudov, LOTIN TILI VA TIBBIY TERMINOLOGIYA DARSLARIDA YUNON KLINIK VA FARMATSEVTIK ATAMALARINING QO’LLANILISHI, <https://research-edu.com/index.php/namdu/issue/view/14>  
<https://research-edu.com/index.php/namdu/article/view/975>
32. Zafar Maxmudov, THE IMPORTANCE OF INSURED MEDICINE IN THE DEVELOPMENT OF PHARMACY IN UZBEKISTAN. (2023). *Journal of Universal Science Research*, 1(6), 185-190.  
<https://universalpublishings.com/~niverta1/index.php/jusr/article/view/1141>
33. Maxmudov, Z. M. Retsept yozishda duch kelinadigan ayrim muammolarning qonuniy yechimi va amalda qo’llash haqida ba’zi mulohazalar,“. *O’zbekistonda ilmiy-amaliy tadqiqotlar” mavzusidagi.*
34. Ozoda, A., & Mardanovich, M. Z. (2023). Na’matak–bebaho ne’mat. *Scientific Impulse*, 1(9), 301-306.